

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**"RO'YXATGA OLINDI"**

**№ VM-343-53408-3.20**

**"1" iyul 2003 y.**

**"TASDIQLANDI"**

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligi**

---

**"8" iyul 2003 y.**

**MUTAXASSISLIKKA KIRISH  
fanidan  
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"  
ta'lim sohasidagi 5340800 - "Soliqlar va  
soliqqa tortish" bakalavriat yo'nalishi uchun**

**Toshkent - 2003**

**Tuzuvchilar:** dots. Almardonov M.,  
k.o'q. Shodiev O.

**Taqrizchilar:** dots. Xo'jaev R.,  
dots. Qo'zieva N.

"Mutaxassislikka kirish" fani bo'yicha har bir talaba o'z bilimlarini oshirib borish uchun turli fanlarni o'qitish metodikasiga oid qo'llanmalar, soliqlarning har bir turi bo'yicha mavjud yo'riqnomalar, tushuntirish xatlari, ko'rsatmalar, soliqqa oid qo'llanmalar, qonuniy va me'yoriy hujjatlar bilan muntazam tanishib, o'rganib borishi lozim.

Основной целью учебной дисциплины "Введение в специальность" является ознакомление студентов такими элементами как изучение действующих методических рекомендаций, сущности действующей налоговой системы, роли, места и значения кадров налоговой системы в управлении экономикой страны, действующие нормативно-правовые акты, регулирующие налоговые отношения между государством и налогоплательщиками, нормативные акты и методические указания, относящиеся к конкретным налогам.

Subject of "taxes and taxation" is thought as specialized subjects of "taxes and taxation" based on High education's state standards. In process of teaching this subject, character of taxes and nontax payments of juridical and corporal persons, calculation of taxes and nontax payments and orders of paying to budget are lightened. Especially calculation of taxes and nontax payments of juridical and corporal persons, presentation of calculations and orders of payments are learned practically and deeply. This example program is approved and confirmed by Ministry of High and Secondary Education of Republic of Uzbekistan.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dasturlar to'plami O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

## **1. SO'Z BOSHI**

### **O'quv fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi**

"Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha "Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitishdan asosiy maqsad talabalarga o'z ixtisosliklari bo'yicha bilimlarni chuqurroq o'rgatishdir. Fanning oldiga qo'yilgan asosiy vazifa talabalarda soliqlarning har bir turining o'ziga xos-xususiyatlarini teran egallashning samarali yo'llarini o'rgatishdan iboratdir.

"Mutaxassislikka kirish" fani "Soliq nazariyasi", "Soliqlar va soliqqa tortish", "Iqtisodiyot nazariyasini o'qitish metodikasi", "Davlat moliyasini o'qitish metodikasi", "Korxonalar moliyasini o'qitish metodikasi", "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" hamda "Moliya nazariyasi", "Iqtisodiyot nazariyasi" "Iqtisodiy (moliyaviy) tahlil", "Pedagogika", "Psixologiya" kabi fanlar bilan chambarchas bog'liqlik.

### **O'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga talablar**

"Mutaxassislikka kirish" fani bo'yicha har bir talaba o'z bilimlarini oshirib borish uchun turli fanlarni o'qitish metodikasiga oid, soliqlarning har bir turi bo'yicha qonuniy va me'yoriy hujjatlar bilan muntazam tanishib borishi lozim.

### **Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlarning minimal miqdoriga talablar**

Mazkur fanni puxta o'rganish uchun amaliy mashg'ulotlarda har bir soliq turi bo'yicha ko'rgazmali o'quv qurollari va kompyuter vositalaridan, fanni o'qitish metodikasining yangi texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

### **Auditoriya mashg'ulotlari turlarining soatlar hajmi bo'yicha tavsiyalar**

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur kursga 54, shu jumladan, 17-ma'ruza, 18 amaliy, 18 mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

"Mutaxassislikka kirish" fani o'quv yilining I-semestriga mo'ljallangan. Fanni o'qitish yuzasidan uslubiy tavsiyalar sifatida fanning mohiyatini to'laroq ochib berishni ta'minlovchi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni talabalarni amaliy hayotda yuzaga kelayotgan muammo va yangiliklardan boxabar qilib borish uchun maslahat soatlarni, fanning metodologik qirralarini chuqurroq tahlil etish uchun kurs ishi, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni ko'rsatish mumkin.

### **Talabalar bilimni baholash maqsadida o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori**

"Mutaxassislikka kirish " fanidan talabalarning bilimini baholash ikki marta oraliq, ikki marta joriy hamda yakuniy nazorat shakllarida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat yozma ish shaklida tashkil etiladi.

### **Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash**

"Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitishda kompyuterlardan, audio va video jihozlardan, diproektor va kodoskoplardan, shuningdek, dars davomida jadvallar, slydlardan foydalanish ko'zda tutilgan.

## **2. FAN DASTURI**

### **"Mutaxassislikka kirish" fani bo'yicha o'qitiladigan ma'ruzalar mavzu**

### **"Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitishning tashkiliy-metodik asoslari**

"Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha "Mutaxassislikka kirish" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. O'qitish metodikasida umumiylik va o'ziga xoslik. *Mutaxassislikka kirish fanini o'qitish metodikasining o'ziga xosligi.*

*O'quv jarayonini boshqarishning ilmiy asoslari.* "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha "Mutaxassislikka kirish" fanini muammoli o'qitish. O'quv materiali mazmuni va uni bayon qilish muammolari. O'qitishning asosiy shakllari. Ma'ruza - o'quv jarayonining asosiy bo'g'inidir. Ma'ruzaning shakllari. Ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish. "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha ixtisoslik fanlaridan ma'ruza rejasi va matnini tuzish qoidalari. Nazariy va amaliy materiallar o'rtasidagi nisbat. Ko'rgazmali qurollar tayyorlash. Materiallar bayonining asoslilikgi va tushunarlilikgi. Ma'ruzaning ko'rgazmaliligini. *Notiqlik san'ati uslublari. Nutq madaniyati. Amaliyot— bilimlarning mustahkamlashni ta'minlovchi va talabalarning ijodiy qobiliyatlarini namoyon qiluvchi o'quv shakli sifatida.* Amaliy mashg'ulotning maqsad va vazifalari. "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha ixtisoslik fanlarini o'qitishda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning o'zaro bog'liqligi hamda ularning mavzularidagi mantiqiy birlik. Amaliy mashg'ulotlarning shakllari va unga tayyorgarlik ko'rish usullari. Adabiyotlarni tanlash va o'rganish tamoyillari. Amaliy mashg'ulotlarni ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar asosida o'qitish didaktikaning muhim tamoyili sifatida. "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha ixtisoslik fanlarini o'qitishda ko'rgazmali qurollarning o'rni va roli. Ko'rgazmali qurollar va o'quv vositalarining turlari. O'quv mashinalaridan foydalanishning asosiy shakllari.

*O'quv jarayonida mustaqil ishning o'rni va roli. Talabalar mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil etishning maqsadi, vazifalari.* Mustaqil ishlarni tashkil etish omillari. Talabaning ilmiy ishlari (referat, kurs ishi va bitiruv malakaviy ish)ga rahbarlik qilishning asosiy qoidalari.

## **"Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitish jarayonida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash metodikasi**

*O'quv jarayonida nazoratning o'rni va roli. Nazoratning shakllari va ularning o'zaro bog'liqligi. Nazoratning asosiy tamoyillari.* Talabalar bilimni tekshirish va uning vazifalari. Maslahat soatining o'quv jarayonidagi roli. Joriy ishlari natijalari bo'yicha talabalar bilimni sinash. Tabaqalashtiruvchi (baholi) sinovlar. Reyting tizimining mohiyati.

"Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha "Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitish metodikasi va uning o'ziga xosligi. Fanning predmeti va uni o'rganish usullari. "Mutaxassislikka kirish" fanining predmeti va vazifalari. *O'qitish metodikasida umumiylik, xususiylik va alohidalik. Metodologiya va metodikaning uzviy birligi.* O'quv jarayonini boshqarishning ilmiy asoslari. Bilimlarni o'zlashtirish, talabalarni o'qitish va tarbiyalashning uzviy birligi. O'qituvchi o'quv jarayonini tashkil etuvchi sub'ekt sifatida. "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishidagi ixtisoslik fanlar bo'yicha o'quv material mazmuni va uni bayon qilish muammolari. Talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish. O'qitishning asosiy shakllari. Auditoriyada va auditoriyadan tashqarida o'qitish shakllari.

## **"Mutaxassislikka kirish" fanidan ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish metodikasi**

Ma'ruza - o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini ekanligi. *Ma'ruzaning shakllari. Kirish va umumiy ma'ruzalar. Umumiy va maxsus kurslar bo'yicha ma'ruzalar. Umumiy (umumlashtiruvchi, yo'naltiruvchi) va xususiy maqsadga yo'naltirilgan ma'ruza. Ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish.* "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha ixtisoslik fanlar yuzasidan ma'ruza rejasini tuzish, materiallar yig'ish. Ilmiy dalil tushunchasi. Dalil materiallariga qo'yiladigan talablar. Ma'ruza matnini tuzish qoidalari. Ko'rgazmali qurollar, jadval – diagramma, tasvir va chizmalarni tayyorlash. Ma'ruzaga qo'yiladigan asosiy talablar. Ma'ruza materiallarini muammoli tuzish va bayon qilish. Material bayonining asosiligi va tushunariligi. Notiqlik san'ati uslublari va so'z madaniyati. Ma'ruzada o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqa. Ma'ruza mazmunining mutaxassislikka kirish fani o'quv dasturiga muvofiqligi.

## **"Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitishda ko'rgazmali qurollar va texnik vositalardan foydalanish metodikasi**

"Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitish jarayonida ko'rgazmali qurollarning o'rni va ahamiyati. *Ko'rgazmali qurollar va o'quv-texnik vositalar yordamida foydalaniladigan materiallar tanlashning asosiy qoidalari.* Ko'rgazmali qurollar (diagramma, grafika,

jadval, chizma) va o'quv vositalari (kodoskop, kinotexnika, televizor, magnitafon, diktofon)ning turlari. O'quv mashinalaridan foydalanishning asosiy shakllari. Ixtisoslashtirilgan auditoriyalarda o'quv, axborot-texnik vositalardan kompleks ravishda foydalanish. O'qituvchining ko'rgazmali qurol va o'quv-texnik vositalar bilan ishlash qoidalari.

### **Talabalarning mustaqil ishini tashkil qilish metodikasi**

O'quv jarayonida talabalar mustaqil ishlarining ahamiyati va roli. Mustaqil ishni rejalashtirish, tashkil qilish shakllari va usullari. *Mutaxassislikka kirish faniga taaluqli adabiyotlar bilan ishlash malakasini shakllantirish. O'qitish jarayonida tezislar, iqtisodiy lug'atlar, entsiklopediyalar, yo'riqnomalar, xatlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda statistik ma'lumotlar bilan ishlash madaniyati va texnikasi.* O'qituvchining referatlar, kurs va bitiruv malakaviy ishlariga rahbarlik qilishga doir uslubiy qoidalar. Talabalarda fanga va ilmiy izlanishga qiziqish o'yg'otishda ilmiy to'garaklarning roli va ahamiyati.

### **"Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitish jarayonida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash metodikasi**

"Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha "Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitish jarayonida nazoratning o'rni va roli. Nazorat shakllari: seminar mashg'uloti, yozma nazorat ishlari, kurs ishlari, maslahatlar, munozara, kollokvium, joriy sinov, imtihon, davlat imtihonlari. Barcha nazorat shakllarining o'zaro bog'liqligi. *Nazoratning asosiy tamoyillari: barcha talabalarni jalb etish, dasturiy materiallarni to'la qamrab olish, talabalarga tabaqaviy yondashish, nazoratni talabalarga yordam berish bilan qo'shib olib borish.* Talabalar bilimni tekshirishning vazifalari. Maslahat soatining o'quv jarayonidagi roli. Reyting tizimining mohiyati. Kundalik, oraliq va yakuniy baholashlarni tashkil qilish va amalga oshirish metodikasi.

## **3. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARINING MAZMUNI**

### **"Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitishning tashkiliy-metodik asoslari**

"Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha "Mutaxassislikka kirish" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. O'qitish metodikasida umumiylik, xususiylik va alohidalikning xususiyatlari\*. Mutaxassislikka kirish fanini o'qitish metodikasining xususiyatlari.

O'quv jarayonini boshqarishning ilmiy asoslari. O'quv material mazmuni va uni bayon qilish muammolari. Ilmiy dalil tushunchasi. Materiallar bayonining asosliligi va

tushunariligi. O'quv jarayonida hissiy omilning roli. Notiqlik san'ati uslublari\*. So'z madaniyati. "Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitishda ko'rgazmalilikning o'rni va roli.

Talabalar mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil etishining maqsadi, vazifalari. Talabaning ilmiy ishlari (referat, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishi)ga rahbarlik qilishning asosiy metodik qoidalari.

### **"Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitish jarayonida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash metodikasi**

"Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha "Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitish jarayonida nazoratning o'rni va roli. Nazoratning shakllari va ularning o'zaro bog'liqligi. Talabalar bilimni tekshirish va uning vazifalari. Maslahat soatining o'quv jarayonidagi roli. Reyting tizimining mohiyati\*.

"Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha "Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitish metodikasi, predmeti va vazifalari. O'qitish metodikasida umumiylik, xususiylik va alohidalik. Metodologiya va metodikaning uzviy birligi\*. Didaktikaning asosiy printsiplari va "Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitish jarayonida ulardan foydalanish.

### **"Mutaxassislikka kirish" fanidan ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish metodikasi**

Ma'ruza - o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini ekanligi. Ma'ruzaning shakllari\*. Umumiy va maxsus kurslar bo'yicha ma'ruzalar.

Ilmiy dalil tushunchasi. Dalil materiallariga qo'yiladigan talablar. Ma'ruza matnini tuzish qoidalari. Ko'rgazmali qurollar, jadval – diagramma, tasvir va chizmalarni tayyorlash. Ma'ruza materiallarini muammoli tuzish va bayon qilish. Material bayonining asosiligi va tushunariligi\*. Notiqlik san'ati uslublari va so'z madaniyati\*.

### **Amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish metodikasi**

Amaliy mashg'ulotning maqsad va vazifalari. "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha ixtisoslik fanlari bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulot mavzusi savollarining mantiqiy birligi. Amaliy mashg'ulotlarning shakllari: umumiy kurs bo'yicha odatdagi amaliy mashg'ulot, majburiy va tanlov asosidagi mashg'ulotlar\*. Amaliy mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish usullari. Amaliy mashg'ulot rejasining asosiy elementlari va ularni tadbiq qilish usullari\*.

"Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha ixtisoslik fanlaridan amaliy mashg'ulotlarda talabalar faolligini rag'batlantirish shakllari va usullari,\* talabalar guruhlarida bahslar tashkil etish, referatlar va ma'ruzalar eshitish, masala va mashqlarni echish, nazoratli yozma ish va kollokviumlar o'tkazish.

## **"Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitishda ko'rgazmali qurollar va texnik vositalardan foydalanish metodikasi**

"Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida ko'rgazmalilikning roli va o'rni. Ko'rgazmali qurollar va o'quv-texnik vositalar yordamida foydalaniladigan materiallar tanlashning asosiy qoidalari\*. Ko'rgazmali qurollar (diagramma, grafika, jadval, chizma) va o'quv vositalari (kodoskop, televizor, magnitofon, diktofon)ning turlari.

Ixtisoslashtirilgan o'quv xonalarida o'quv-axborot, texnik vositalardan kompleks ravishda foydalanish\*.

### **Talabalar mustaqil ishini tashkil qilish metodikasi**

O'quv jarayonida talabalar mustaqil ishlarining ahamiyati va roli. Mustaqil ishlarni tashkil qilish shakllari va usullari. "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha ixtisoslik fanlariga taalluqli adabiyotlar bilan ishlash malakasini shakllantirish. O'qish jarayonini qismlarga ajratish, tezislar, iqtisodiy lug'atlar, entsiklopediyalar, yo'riqnomalar, xatlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda statistik ma'lumotlar bilan ishlash madaniyati va texnikasi. Talabaning referatlar, kurs va bitiruv malakaviy ishlariga rahbarlik qilishning asosiy uslubiy qoidalari\*.

### **"Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitish jarayonida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash metodikasi**

"Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida nazoratning o'rni va roli. Nazoratning shakllari: seminar mashg'uloti, yozma nazorat ishlari, kurs ishlari, maslahat soatlari, munozara, kollokvium, joriy sinov, imtihon, davlat imtihonlari, barcha nazorat shakllarining o'zaro bog'liqligi\*. Talabalar bilimni tekshirish va uning vazifalari. Maslahat soatlarining o'quv jarayonidagi roli\*. Reyting tizimining mohiyati.

## **4. INFORMATsION-TEXNIK VOSITALAR**

Bu fanni o'qitish jarayonida quyidagi zamonaviy texnik vositalardan foydalanish ko'zda tutilgan:

1. Kompyuter;
2. Audio va video jihozlar;
3. Diaproektor;
4. Kodoskop;
5. Grafproektor;
6. Internet saytlari:



- <http://www.finstat.ru/>
- e-mail: valeo@etel.ru

## **5. O'ZLASH TIRISH NAZORATI**

Fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirishlarini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB);
- oraliq baholash (OB);
- yakuniy baholash (YaB).

JB va OB turlari uchun belgilangan ballar miqdori o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning 70 foizi, yakuniy baholash esa 30 foiz miqdorida belgilanadi.

Fan bo'yicha dastur to'la o'tilgandan keyin YaB "yozma ish" shaklida (o'quv rejasiga ko'ra) o'tkaziladi.

Tayanch tushunchalariga asoslangan (yozma ish) usulini o'tkazish tartibi "reyting tuzishning yakuniy baholash bosqichida" "yozma ish" usulini tadbiq etish bo'yicha Namunaviy nizom bilan belgilanadi. Semestr o'quv yili davomida o'qitilgan fan bo'yicha 55 foiz va undan yuqori foizni to'plagan talaba qoniqarli o'qiyotgan hisoblanadi. Fan bo'yicha maksimal ballning 55 foizidan kam ball to'plagan talaba qoniqarsiz o'qiyotgan (qarzdor) deb hisoblanadi.

## **6. ADABIYO TLAR**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: Adolat, 1999.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. -T.: Adolat, 1999.
3. Karimov I.A. O'zbekiston Buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston 1998.
4. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. -T.: O'zbekiston, 1996.
5. Beganov V.S., Shaulov D.I., Kan U.T. Finansovaya politika, nalogi i nalogooblojenie. -T.: Mir ekonomiki i pravo, 1998.
6. Brizgalin A.V. Nalogi i nalogovoe pravo. -M.: Analitika press, 1999.
7. Yo'ldoshev M., Tursunov E. Soliq huquqi. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000.
8. Nalogi i nalogooblojenie. Praktikum. Ucheb. pos. - M.: Analitika press, 2000.
9. Shaulov D.I., Kan U.T. Soliq qonunchiligi asoslari. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000.

10. Xvan L.B. Soliq huquqi. - T.: Konsauditinform, 2000.
11. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. -T.: G'afur G'ulom, 2002.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq qonunchiligi bo'yicha normativ aktlar to'plami. 1-2 qism. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2002.
2. 2003 yil soliqlari va majburiy to'lovlar bo'yicha ma'lumotnoma. -T.: O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi nashriyot markazi, 2003.
3. Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizom. -T.: O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi nashriyot markazi, 1999.
4. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb muammolari. -T.: Akademiya, 2002.
5. Yahyoev Q. A. Soliqqa tortish imtiyozlari kerakmi? // Soliq to'lovchilar jurnali 1998.
6. Mesheryakova O. Nalogovie sistemi razvitix stran mira.-1995.